


XI. Toshkent viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra

1. Korxonalar va tashkilotlarning soni
2. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
3. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
4. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid tushunchalar

1. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 46 479 tani tashkil etdi, shundan 40 139 tasi yoki 86,3 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2025- yilning shu davriga nisbatan korxonalar va tashkilotlar soni o'sishi 114,8 % ni, jumladan kichik biznes va mikrofirmalarda – 116,7 % ni tashkil etdi.



Soni



Faoliyat ko'rsatayotganlarning o'tgan yilga nisbati % da

**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy ta'rifi**

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni,
(1-yanvar holatiga)

Yillar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	46 479	40 524	40 139
2025	40 500	34 739	34 389
2024	45 295	39 289	38 953
2023	55 472	49 488	49 145
2022	50 296	44 477	44 156

Hududlar bo'yicha eng ko'p korxonalar va tashkilotlar ulushi Zangiota (*jami faoliyat ko'rsatayotganlarning 11,5 foizi*), Qibray (*8,7 foiz*), Toshkent (*7,0 foiz*), Parkent (*6,2 foiz*) tumanlari va Chirchiq shahri (*6,6 foiz*) hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Zangiota (*12,3 foiz*), Toshkent (*7,3 foiz*), Qibray (*8,9 foiz*), Parkent (*6,4 foiz*) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	kichik biznes subyektlari
Toshkent viloyati	46 479	40 524	40 139
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	1 186	937	922
Olmalik	1 942	1 686	1 662
Angren	2 477	2 134	2 101
Bekobod	1 475	1 259	1 249
Ohangaron	1 029	916	901
Chirchiq	3 065	2 697	2 657
Yangiyo'l	1 534	1 358	1 352
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	1 181	984	978
Ohangaron	1 341	1 114	1 097
Bekobod	1 435	1 180	1 174
Bo'stonliq	2 550	2 172	2 147
Bo'ka	1 307	1 080	1 076
Quyichirchiq	1 467	1 241	1 231
Zangiota	5 336	4 962	4 925
Yuqorichirchiq	2 328	2 049	2 031
Qibray	4 021	3 590	3 554
Parkent	2 914	2 597	2 583
Piskent	1 126	920	910
O'rta Chirchiq	2 020	1 765	1 750
Chinoz	1 264	1 023	1 015
Yangiyo'l	2 222	1 912	1 894
Toshkent	3 259	2 948	2 930

**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy ta'rifi**

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p qismi Savdo tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026- yil 1- yanvar holatiga **33,5** foizni tashkil etdi.




Ikkinchi o'rinda boshqa turlar **22,6** foizni, uchinchi o'rinda sanoat **14,8** foizni tashkil etdi. Ushbu uch turdagi iqtisodiy faoliyat turlari, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning **70,9** foizini tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxonalar va tashkilotlar	shu jumladan:	
		tadbirkorlik subyektlari	kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 059	4 012	3 983
Sanoat	6 899	6 886	6 751
Qurilish	2 750	2 733	2 712
Savdo	15 590	15 589	15 525
Tashish va saqlash	1 464	1 461	1 438
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 302	3 288	3 271
Axborot va aloqa	810	767	762
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 094	785	767
Boshqa turlar	10 511	5 003	4 930

2. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, **40,5** mingta faol tijorat korxonalaridan **33,4** mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlari bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibi.



Faoliyat ko'rstayotgan tadbirkorlik subyektlari soni,

1- yanvar holatiga

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	33 454	82,6
Xususiy korxonalar	3 522	8,7
Oilaviy korxonalar	3 306	8,2
Aksiyadorlik jamiyati	46	0,1
Boshqalar	196	0,5


Shundan kelib chiqib, MCHJlar viloyatda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta'rifi

3. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 2 402 ta korxonalardan 495 tasi qo'shma korxonalar va 1 907 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Jami:	2 402	495	1 907
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	93	37	56
Sanoat	834	248	586
Qurilish	139	25	114
Savdo	921	95	826
Tashish va saqlash	41	11	30
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	42	8	34
Axborot va aloqa	125	3	122
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	12	8	4
Boshqa turlar	98	34	52

**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy ta'rifi**

2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining soni, 2025- yilning mos davriga nisbatan 629 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 628 tadan 921 taga (o'sish 293 taga), axborot va aloqa sohasida 68 tadan 125 taga (o'sish 57 taga) va qurilish sohasida 88 tadan 139 taga (o'sish 51 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, 1- yanvar holatiga

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 1 076 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 44,8 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (9,1 %), Turkiya (10,4 %), Qozog'iston (3,7 %) va Janubiy Koreya (2,7 %) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Jami:	2 402	495	1 907
Xitoy Xalq Respublikasi	1 076	56	1 020
Turkiya Respublikasi	251	20	231
Rossiya Federatsiyasi	218	36	182
Qozog'iston Respublikasi	90	15	75
Janubiy Koreya Respublikasi	66	14	52
Afg'oniston	40	1	39
Tojikiston Respublikasi	35	2	33
Birlashgan Arab Amirligi	26	10	16
Hindiston Respublikasi	24	5	19
Pokiston Islom Respublikasi	22		22
Amerika Qo'shma Shtatlari	21	5	16
Qirg'iz Respublikasi	18	4	14
Singapur Respublikasi	18	6	12
Belorussiya Respublikasi	17	2	15
Ozarbayjon Respublikasi	17	1	16
Boshqa davlatlar	463	318	145

4. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri—real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangi kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolariva fuqaroligibo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.